



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	



BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI

Nazarov Nazar G'ulom o'g'li
Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti doktoranti, PhD
ORCID: 0009-0007-2599-8769
nazarbek.2728@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlarining 2010-2025-yillar oralig'idagi tarmoqlararo iqtisodiy samaradorlik indikatorlari, ya'ni ishlab chiqarishning YalMdagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi, chakana savdo hajmi, qurilish ishlari hajmi, band bo'lganlar soni, ko'rsatgan xizmatlar hajmi, yuk aylanmasi hajmi, yo'lovchi aylanmasi hajmi kabi indikatorlari o'zaro bog'liqligi ekonometrik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan takliflardan Buxoro viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, biznes muhiti, ko'p o'zgaruvchili regressiya, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье представлен эконометрический анализ взаимосвязи субъектов малого и среднего предпринимательства, действующих в Бухарской области, таких как показатели межотраслевой экономической эффективности в период с 2010 по 2025 год, то есть доля производства в ВВП, объем производства, розничные продажи, объем строительных работ, количество занятых, объем предоставляемых услуг, объем грузооборота, объем пассажирооборота. Предложения, разработанные по результатам исследования, могут быть использованы при разработке программ развития предпринимательства в Бухарской области.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, бизнес-среда, многомерная регрессия, экономическая эффективность.

Annotation. This article provides an econometric analysis of the interconnection of small and medium-sized business entities operating in the Bukhara region, such as indicators of inter-sectoral economic efficiency between 2010 and 2025, that is, the share of production in GDP, volume of production, retail sales, volume of construction work, number of employed people, volume of services provided, volume of cargo turnover, volume of passenger turnover. The proposals developed based on the research results can be used in developing entrepreneurship development programs in the Bukhara region.

Keywords: small and medium-sized businesses, business environment, multivariate regression, economic efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda hududlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va tarmoqlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishning muhim huquqiy asosini yaratdi. Shu nuqtai nazardan, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatining tarmoqlararo iqtisodiy samaradorligini zamonaviy ekonometrik usullar asosida baholash va omillar ta'sirini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Buxoro viloyati iqtisodiyoti sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va turizm tarmoqlarining o'zaro uyg'un rivojlanishi bilan ajralib turadi. Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari hududiy yalpi mahsulotni shakllantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim o'rin egallaydi. Biroq tarmoqlar kesimida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat, investitsiyalar, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellar yordamida chuqur tahlil qilish, iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash zarurati mavjud.



Mazkur maqolada Buxoro viloyatidagi kichik va o'rta biznes subyektlarining tarmoqlararo iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ekonometrik tahlil qilinib, ularni yanada oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ekonometrik usullar asosida tahlil qilish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, xorijiy olim David J. Storey [2] o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashda ishlab chiqarish hajmi, bandlik va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ekonometrik modellar yordamida ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hududiy iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir xorijiy olim Zoltan J. Acs [3] tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib, kichik va o'rta biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etish, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutishini qayd etadi. Olim iqtisodiy samaradorlikni baholashda regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va boshqa ekonometrik usullardan foydalanish natijalarning ishonchligini oshirishini asoslaydi.

Mahalliy olimlardan Ixtiyor Sharipov [4] O'zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini statistik tahlil qilib, hududlar kesimida tadbirkorlik rivojlanishining asosiy tendensiyalarini o'rgangan. Muallif kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar ko'rsatish, bandlik va investitsiya ko'rsatkichlarini kompleks baholash hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Nilufar Nabiyeva [5] o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib, kredit resurslaridan foydalanish, eksport salohiyati, xizmatlar sohasi va hududiy tafovutlar kichik biznes samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar ekanligini asoslaydi. Muallif ushbu omillarni ekonometrik baholash hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatining tarmoqlararo iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, YalMdagi ulushi, chakana savdo, qurilish ishlari, xizmatlar hajmi, bandlik, yuk va yo'lovchi aylanmasi kabi ko'rsatkichlarni kompleks ekonometrik tahlil qilish hududiy iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi[6].

Mazkur tadqiqotda aynan ushbu yondashuvlardan foydalanilgan holda Buxoro viloyatida 2010–2025 yillar davomida kichik va o'rta biznes subyektlarining tarmoqlararo iqtisodiy samaradorligi ekonometrik usullar asosida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Buxoro viloyatidagi kichik va o'rta biznes subyektlarining tarmoqlararo iqtisodiy samaradorligi baholashda Stata 17.0 dasturi yordamida regression-korelyatsion tenglama, moda, mediana usullaridan foydalanilib, modeldagi omillar ta'siri F-test, R^2 koeffitsienti, p-qiymat orqali tekshirilgan hamda regressiya koeffitsientlari asosida izohlangan.

TAHLIL VA NATIJA

So'nggi yillarda Buxoro viloyatida kichik biznes subyektlari sonining ortishi, xizmat ko'rsatish sektori kengayishi va eksport faoliyatining faollashuvi kuzatilayotgan bo'lsa-da, hududiy va tarmoqlararo nomutanosibliklar, texnologik cheklovlar, moliyalashtirish muammolari hamda institutsional to'siqlar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, tarmoqlar o'rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi, logistika va raqamli infratuzilmaning cheklanganligi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorlik o'zgarishlarini tarmoqlararo rivojlantirishning metodologik istiqbollari o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida kichik biznes samaradorligi faqat alohida korxona yoki sektor faoliyati bilan emas, balki tarmoqlararo kooperatsiya, innovatsion aloqalar, logistika tizimi va raqamli iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Masalan, turizm sektoridagi rivojlanish hunarmandchilik, transport, mehmonxona, oziq-ovqat va elektron savdo xizmatlari faoliyatini ham rag'batlantiradi. Shu sababli kichik biznes samaradorligini baholashda tarmoqlararo bog'liqliklarni hisobga oluvchi kompleks metodologik yondashuvlarni qo'llash zarur hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval


Buxoro viloyati bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tasviriy ko'rsatkichlari (2010-2025)

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max	Birligi
Yillar	16	2017.5	4.761	2010	2025	yil
Jami YaIM ulushi	16	74.519	4.511	64.5	81.9	foiz
Ishlab chiqarish hajmi	16	5860.488	6412.899	477	22952.1	mlrd.so'm
Yo'lovchi aylanmasi hajmi	16	8648.7	1509.334	5595.2	10241	mln.pass.km
Band bo'lganlar soni	16	614.594	25.786	576.8	648.7	ming kishi
Qurilish ishlari hajmi	16	4589.031	5129.292	303	16101.8	mlrd.so'm
Chakana savdo aylanmasi	16	8743.306	7080.049	1073.5	23935.8	mlrd.so'm
Yuk aylanmasi hajmi	16	1448.244	429.328	885.7	2208.6	mln.tonna-km
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	16	7892.731	8800.168	841.5	30280.3	mlrd.so'm
Mahsulot eksport hajmi	16	108.263	57.71	25.6	215.5	mln.AQSH.dol

Jadval natijalariga ko'ra, Buxoro viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining 2010–2025-yillar oralig'idagi iqtisodiy rivojlanish dinamikasi sezilarli darajada o'sganini ko'rsatadi. Xususan, kichik biznesning Jami YaIMdagi o'rtacha ulushi 74.5 foizni tashkil etib, minimal qiymat 64.5 foiz, maksimal qiymat esa 81.9 foizga yetgan. Bu esa viloyat iqtisodiyotida kichik biznes asosiy iqtisodiy drayverlardan biri ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, band bo'lganlar sonining o'rtacha 614.6 ming kishini tashkil qilishi va maksimal qiymatning 648.7 ming kishiga yetishi kichik biznesning hududiy bandlikni ta'minlashdagi strategik rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa, standart og'ishning nisbatan pastligi (25.786) bandlik ko'rsatkichlarining yillar davomida nisbatan barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq indikatorlarda juda katta iqtisodiy o'sish kuzatilgan. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining o'rtacha qiymati 5860.5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, maksimal qiymat 22952.1 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 2010–2025 yillarda Buxoro viloyatida sanoat va ishlab chiqarish faoliyati keskin kengayganini anglatadi. Xuddi shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'rtacha qiymati 7892.7 mlrd so'm bo'lib, maksimal qiymat 30280.3 mlrd so'mga yetganligi xizmat ko'rsatish sektori eng tez rivojlangan tarmoqlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Chakana savdo aylanmasining o'rtacha 8743.3 mlrd so'mni tashkil qilgani va maksimal qiymatning 23935.8 mlrd so'mga yetgani esa hududda ichki iste'mol bozori va savdo faoliyatining jadal kengayganini bildiradi. Standart og'ishlarning yuqori bo'lishi esa ushbu sektorlar bo'yicha iqtisodiy o'sish sur'atlari yillar kesimida sezilarli farqlanganini ko'rsatadi.


Mazkur grafik Buxoro viloyatida 2010–2025-yillar davomida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bilan bog'liq asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish tendentsiyasini aks ettiradi (1-rasm).



1-rasm. Buxoro viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish dinamikasi (2010–2025)




Grafik natijalariga ko'ra, eng yuqori o'sish sur'ati "Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi" indikatorida kuzatilgan bo'lib, u 2010-yildagi taxminan 800–900 mlrd so'mlik darajadan 2025-yilga kelib 30 ming mlrd so'mdan yuqori ko'rsatkichga yetgan. Bu holat Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sektori, ayniqsa savdo, transport, turizm va maishiy xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli keskin oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "Chakana savdo aylanmasi" ko'rsatkichi ham barqaror o'sib, 2025-yilga kelib 24 ming mlrd so'mga yaqinlashgan. Bu esa ichki iste'mol bozori va savdo faoliyatining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, hududda aholining xarid qobiliyati va biznes faolligi ortib borayotganini anglatadi (2-rasm).



2-rasm. Buxoro viloyatida kichik biznesning YaIMdagi ulushi va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlili

Grafik natijalariga ko'ra, "Yo'lovchi aylanmasi hajmi" bilan "Jami YaIM ulushi" o'rtasida nisbatan ijobiy bog'liqlik kuzatilmoqda. Ya'ni transport va yo'lovchi tashish faoliyatining rivojlanishi kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, xizmat ko'rsatish, logistika va turizm bilan bog'liq biznes faoliyatining iqtisodiy faollikka ta'siri ortib borayotganini anglatadi. Grafikdagi fitted line yuqoriga yo'nalgan bo'lib, transport infratuzilmasi va iqtisodiy integratsiya kichik biznes rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, "Ishlab chiqarish hajmi" va "Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi" bilan "Jami YaIM ulushi" o'rtasida nisbatan salbiy yoki sust bog'liqlik kuzatilgan. Grafiklarda fitted line pastga yo'nalgan bo'lib, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi oshgan sari kichik biznesning YaIMdagi ulushi ayrim davrlarda kamayganini ko'rsatadi. Bu holat yirik korxonalar yoki davlat investitsiyalarining ayrim tarmoqlarda tezroq o'sishi natijasida kichik biznes ulushining nisbatan qisqarishi bilan izohlanishi mumkin (3-rasm).



**3-rasm Buxoro viloyatida kichik biznes ko'rsatkichlari
bo'yicha avtokorrelyatsiya va qisman avtokorrelyatsiya tahlili**

Bu vaqt qatorlaridagi ichki bog'liqlik va kechikkan ta'sirlarni aniqlash imkonini beradi. Grafik natijalariga ko'ra, barcha lag qiymatlaridagi ustunlar 95 foizlik ishonch oralig'i ichida joylashgan bo'lib, bu vaqt qatorlarida kuchli avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, birinchi lagda manfiy bog'liqlik kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi laglarda koeffitsientlar nolga yaqinlashmoqda. PACF grafikida ham sezilarli dominant lag mavjud emasligi modelda yuqori darajadagi trend yoki kuchli mavsumiy komponent mavjud emasligini bildiradi. Mazkur natijalar vaqt qatorlari nisbatan barqaror va stasionarlikka yaqin holatda ekanligini anglatadi hamda keyingi bosqichda ARIMA, VAR yoki boshqa time series econometric modellarini qo'llash uchun ma'lumotlar mos ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur regressiya modeli Buxoro viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining Jami YaIMdagi ulushiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida qurilgan bo'lib, modelning umumiy statistik ahamiyatligi yuqori darajada ekanligi kuzatiladi (2-jadval).

**2-jadval
Jami YaIM ulushiga ta'sir qiluvchi ko'p omilli regressiya modeli**

Jami_YaIM_ulushi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Yolovchi_aylanmasi hajmi	.004	.001	8.03	0	.003	.005	***
Band_bolganlar_soni	.032	.018	1.75	.108	-.008	.072	
Korsatilgan_xizmatlar hajmi	0	0	-4.54	.001	-.001	0	***
Mahsulot_eksport_hajmi	-.025	.016	-1.62	.134	-.06	.009	
Constant	25.671	11.303	2.27	.044	.794	50.548	**
Mean dependent var	74.519	SD dependent var	4.511				
R-squared	0.895	Number of obs	16				
F-test	23.560	Prob > F	0.000				
Akaike crit. (AIC)	66.450	Bayesian crit. (BIC)	70.313				
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							



Xususan, modelning determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0.895$ bo'lib, bu tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar Jami YaIM ulushidagi o'zgarishlarning 89.5 foizini izohlab bera olishini anglatadi. Shu bilan birga, model bo'yicha F-test = 23.560 va Prob > F = 0.000 qiymatlari model umumiy holda statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Demak, yo'lovchi aylanmasi, bandlik, xizmatlar hajmi va eksport hajmi kabi omillar Buxoro viloyatida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Regressiya natijalariga ko'ra, yo'lovchi aylanmasi hajmining 1 birlikka oshishi Jami YaIM ulushini o'rtacha 0.4 foizga oshiradi ($\beta=0.004$; $p<0.01$). Ushbu natija transport-logistika va yo'lovchi tashish faoliyatining kichik biznes rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Buxoro viloyatida turizm, savdo va xizmat ko'rsatish sektori bilan bog'liq transport faoliyati iqtisodiy faollikni oshirayotganini ko'rish mumkin. Shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 1 birlikka oshishi jami YaIM ulushini kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatgan ($\beta\approx-0.000$; $p<0.01$). mazkur natija dastlab qarama-qarshi ko'rinsa-da, xizmatlar sektoridagi yirik korxonalar yoki davlat investitsiyalarining tezroq o'sishi natijasida kichik biznes ulushining nisbatan kamayganini anglatishi mumkin. Ya'ni xizmatlar hajmi umumiy iqtisodiyotda o'sayotgan bo'lsa-da, ushbu o'sishning ma'lum qismi kichik biznes emas, balki yirik subyektlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lishi ehtimoli mavjud.

Bundan tashqari, band bo'lganlar sonining 1 birlikka oshishi Jami YaIM ulushini 3,2 foizga oshirishi kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu natija statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p=0.108$). Bu holat bandlikning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri mavjudligini ko'rsatsa-da, modelda ushbu ta'sir yetarlicha kuchli emasligini bildiradi. Shu bilan birga, mahsulot eksport hajmining 1 birlikka oshishi Jami YaIM ulushini 2,5 foizga kamaytirishi aniqlangan ($\beta=-0.025$), ammo bu ko'rsatkich ham statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p=0.134$). Bu esa eksport faoliyati o'sayotgan bo'lsa-da, uning kichik biznes ulushiga ta'siri bevosita va kuchli emasligini ko'rsatadi. Ehtimol, eksport faoliyatining asosiy qismi yirik sanoat yoki davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lishi mumkin.

Breusch–Pagan/Cook–Weisberg testi regressiya modelida dispersiyaning doimiyligini, ya'ni heteroskedastiklik muammosi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida qo'llanildi [7]. Test natijalariga ko'ra, $\chi^2(1)=0.60$ va unga mos Prob > $\chi^2 = 0.4389$ qiymati olindi. Mazkur p-qiymat 0.05 dan katta bo'lgani sababli nol gipoteza — “qoldiqlar dispersiyasi doimiy” degan faraz rad etilmaydi. Demak, modelda heteroskedastiklik muammosi kuzatilmagan va qoldiqlar dispersiyasi barcha kuzatuvlar bo'yicha nisbatan barqaror shakllangan. Bu esa regressiya modelidagi standart xatolar, t-statistikalar va p-qiymatlarning ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot tahlil natijalari Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar turlicha darajada ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Regressiya natijalariga ko'ra, yo'lovchi aylanmasi hajmi kichik biznesning YaIMdagi ulushiga ijobiy va statistik jihatdan ishonchli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi, aholi mobilligining ortishi hamda turizm va xizmat ko'rsatish sohasining faollashuvi kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, xizmatlar hajmi ko'rsatkichining manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'siri xizmatlar sohasidagi o'sishning asosiy qismi yirik korxonalar yoki davlat ishtirokidagi subyektlar hisobiga yuz berayotganini anglatadi. Natijada xizmatlar sektori kengayayotgan bo'lsa-da, kichik biznesning nisbiy ulushi kamayishi mumkinligi kuzatildi.

Model diagnostikasi natijalari regressiya tenglamasining statistik jihatdan ishonchliligini tasdiqladi. Xususan, Breusch–Pagan/Cook–Weisberg testi natijalariga ko'ra heteroskedastiklik muammosi aniqlanmadi, bu esa regressiya koeffitsiyentlari, standart xatolar va statistik xulosalarning ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, xizmatlar sohasida kichik biznes ulushini oshirish hamda eksport faoliyatida kichik biznes ishtirokini rag'batlantirish zarurligini asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Mirziyoyev Sh. M. “Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF–193-son Farmoni, 2023-yil 10-noyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-6658633>
- [2] David J. Storey *Understanding the Small Business Sector*. London: Routledge, 1994..
- [3] Zoltan J. Acs. *Entrepreneurship, Growth and Public Policy*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008.



[4] Bobur Anvar o'g'li Sharipov. Economic and Statistical Analysis of Small Business and Private Entrepreneurship in the Regions of the Republic of Uzbekistan // *EPRA International Journal of Economic and Business Review*. – 2021. – Vol. 9, Issue 7. DOI: 10.36713/epra7962.

[5] Nilufar Nabiyeva. O'zbekistonda kichik biznes va ishbilarmonlik faoliyati ko'rsatkichlari tahlili // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2025. – 3-jild, 10-son. – B. 151–160. DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss10-pp151-160.

[6] Nazar, PhD Nazarov. "STATISTICAL RESEARCH METHODS OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN."

[7] NAZAROV, N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (10), 719-727.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>